Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320061

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

TOSHKENT SHAHRIDA MEHNAT BOZORINING JORIY HOLATI TAHLILI

TURSUNOVA FAYOZA ZARIPOVNA
tursunovafayoza886@gmail.com

Annotatsiya

Bugungi kunda mehnat bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, yirik shaharlar – iqtisodiy faoliyat markazi sifatida – ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning shakillanishida muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahri O'zbekistonning poytaxti sifatida nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy markaz hamdir. Shu sababli, ushbu hududdagi mehnat bozorining holatini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri haqida o'rganishlar olib boramiz.

Kalit so'zlar

Mehnat bozori,iqtisodiy faol aholi,ishsizlik darajasi,o'rtavha ish haqqi,bandlik,ish o'rinlari

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF THE LABOR MARKET IN TASHKENT CITY

Tursunova Fayoza Zaripovna
tursunovafayoza886@gmail.com

Abstract

Today, the labor market is an important component of the economy of any country. Especially large cities, as centers of economic activity, play a significant role in shaping the supply and demand for labor. The city of Tashkent, as the capital of Uzbekistan, is not only a political center but also an economic and social hub of the country. Therefore, we will conduct research on the analysis of the labor market situation in this region, which is considered one of the relevant issues.

Keywords

Labor market, economically active population, unemployment rate, average salary,employment, job positions

Kirish

Toshkent shahrida mehnat bozori yuqori darajada rivojlangan va dinamik hisoblanadi. Bu yerda sanoat, investitsiya, xizmat ko'rsatish, axborot texnologiyalari, ta'lim, savdo va qurilish sohalari keng rivojlangan. Aholining katta qismi aynan xizmat ko'rsatish va savdo sektorida band. So'nggi yillarda Toshkentda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga

Published: 05.06.2026

Cite this article: Tursunova Fayoza Zaripovna (2026). Toshkent shahrida mehnat bozorining joriy holati tahlili. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320061

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

oshirildi. Natijada, rasmiy bandlik darajasi oshib, ishsizlik darajasi nisbatan pasaydi. Mehnat bozorida talab va taklif muvozanati muhim hisoblanadi. Toshkent shahrida yuqori malakali yosh va iqtisosligisi baland mutaxassislarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Jumladan, quyidagi sohalarda ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori: Axborot texnologiyalari (IT), bank va moliya sektori, qurilish va muhandislik, tibbiyot va ta’lim Ammo, ba’zi hollarda ish beruvchilar talab qilayotgan malaka bilan ish izlovchilarning bilim va ko‘nikmalari orasida nomutanosiblik kuzatiladi. Bu esa “malaka bo‘shlig‘i” muammosini yuzaga keltiradi. Toshkent shahrida ishsizlik darajasi respublikaning boshqa hududlariga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, muammo to‘liq bartaraf etilgani yo’q. Ishsizlikning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar orasida tajriba yetishmasligi, hayotiy qarorlar qabul qilishda, ish va kasbiy faoliyatda, muammolarni hal qilishda, odamlar bilan munosabatlarda, ma’suliyat hissida .Bilimdan ko’ra ko’proq amalda sinab ko’rilgan ko’nikmalar va hayotiy tajribalarning kamligi.
2. Kasb tanlashda noto‘g‘ri yo‘nalishlar, bunga sabab qiziqish mos kelmasligi, qobilyat hisobga olinmasligi, boshqalarga ergashish, faqat pulni o’ylash .
3. Mehnat bozoriga mos kelmaydigan ta’lim tizimi hozirgi kunda muammolarga uchrayotgan faqat nazariyaga urg’u berilgan ta’lim, eskirgan o‘quv dasturlar, amaliy ko’nikmalar yetishmasligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik yo‘qligi, kasbga yo‘naltirish yo‘qligi
4. Norasmiy bandlikning mavjudligi bu shartnoma va soliqsiz ishchilar misol tariqasida bularga bozorda savdo qilish, qurilishda kunlik ishchilar, uy xizmatlari, taksi xizmatlari, online ishlarda ishlovchilar nazarda tutiladi.

Shuningdek, qishloq hududlaridan poytaxtga migratsiya ham mehnat bozoriga bosimni oshiradi. Toshkent shahrida norasmiy bandlik darajasi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim fuqarolar rasmiy ro‘yxatdan o‘tmasdan ishlashni afzal ko‘rishadi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga va ijtimoiy himoya tizimining zaiflashishiga olib keladi. Raqamlashtirish va yangi imkoniyatlar so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi Toshkent mehnat bozoriga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi. Masofaviy ish, frilans faoliyat, startaplar soni ortib borishi yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, IT Park va boshqa innovatsion markazlarning tashkil etilishi yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

2017-yildan boshlab mehnat bozori sezilarli darajada rivojlana boshlagan iqtisodiy islohotlar jadallashib, (yangi bizneslar, investitsiyalar, xizmat ko‘rsatish sohasi o‘sdi). Avvalo, mehnat bozorining umumiy nazariy jihatlari va asosiy ko‘rsatkichlari tomonidan batafsil tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, ish haqi va aholi daromadlari kabi ko‘rsatkichlar tizimli

ravishda o‘rganilib, ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalari statistik usullar asosida tahlil qilingan. Muallif mehnat bozorini baholashda vaqtli qatorlar va o‘sish ko‘rsatkichlarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari masalasi ishida iqtisodiy-matematik modellar asosida o‘rganilgan. Ushbu ishda elektron mehnat shartnomalari va raqamli platformalarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, 2021–2023-yillardagi mehnat bozori ko‘rsatkichlari tahlili ishida keltirilgan bo‘lib, unda pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy islohotlar, texnologik modernizatsiya va yoshlar bandligi masalalari muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar. Toshkent shahrida mehnat bozorining joriy holatini chuqur tahlil qilish uchun zarur nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Toshkent shahrida mehnat bozoriga bo‘lgan talab hududlar kesimida turlicha bo‘lib, asosan iqtisodiy faollik va infratuzilmaga bog‘liq.

1-jadval

	2025-yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart	O‘sish sur’ati, % da
Toshkent shahri	**9 836,7**	**11 684,3**	**118,8**
shundan:			
Uchtepa	5 176,0	5 960,2	115,1
Bektemir	6 513,1	7 487,8	115,0
Yunusobod	12 000,4	13 767,3	114,7
Mirzo Ulug‘bek	10 662,5	13 055,8	122,4
Mirobod	12 635,4	14 322,5	113,4

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

Shayxontohur	10 497,7	14 083,5	134,2
Olmazor	7 414,5	8 563,3	115,5
Sergeli	9 056,0	10 585,4	116,9
Yakkasaroy	10 328,9	11 422,8	110,6
Yashnobod	8 984,1	11 417,9	127,1
Yangihayot	5 831,5	6 095,5	104,5
Chilonzor	8 143,1	9 903,2	121,6

1-jadval

1-rasm Toshkent shahri bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (*qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m*)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori darajasi moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 22 154,7 ming so‘m (Toshkent shahridagi o‘rtacha oylik ish haqidan 189,6 % ga), axborot va aloqa – 18 667,5 ming so‘m (159,8 % ga), boshqa faoliyat turlarida – 13 886,2 ming so‘m (118,8 % ga), tashish va saqlash – 12 889,3 ming so‘m (110,3 %) tashkil etganini kuzatishimiz mumkin.

Toshkent shahrida mehnat bozoriga bo‘lgan talab hududlar kesimida turlicha bo‘lib, asosan iqtisodiy faollik va infratuzilmaga bog‘liq. Quyidagi hududlarda talab nisbatan kuchli:

1.**Yunusobod tumani** – xizmat ko‘rsatish sohasi, IT va savdo markazlari rivojlangan, malakali mutaxassislarga talab yuqori.

2.**Mirzo Ulug‘bek tumani** – ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar ko‘p, IT va innovatsion sohalarda ish o‘rinlari mavjud.

3.**Chilonzor tumani** – aholi zichligi yuqori, savdo, xizmat ko‘rsatish va kichik biznesda ish o‘rinlari ko‘p.

4.**Yakkasaroy tumani** – turizm, mehmonxona va restoran sohasida talab yuqori.


5.**Olmazor tumani** – sanoat va ishlab chiqarish korxonalari mavjudligi sababli texnik kasblarga ehtiyoj katta.

6.**Sergeli tumani** – yangi qurilishlar va sanoat zonalari sabab ishchi kuchiga talab ortib bormoqda.

7.Bektemir tumani **– asosan sanoat hududi bo‘lib, ishlab chiqarish sohasida ish o‘rinlari mavjud.**

Ish haqi ming so‘mda

2-jadval



2-rasm Toshkent shahrining 2026-yil 1-aprel holatiga o’rtacha ish haqqi ko‘rsatkichi[2]

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng past darajasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 5 581,1 ming so‘m, ta’limda 7 852,5 ming so‘m kuzatildi.

[2] www.stormgain.com

Xulosa va takliflar

O‘rganishlar natijasida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Toshkent shahrida mehnat bozori barqaror rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Ularni hal etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-Ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish
-Kasb-hunar o‘qitishni rivojlantirish
-Yoshlarni amaliy tajriba bilan ta’minlash
-Norasmiy bandlikni qisqartirish
-Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish

Umuman olganda, Toshkent shahrida mehnat bozorining istiqbollari ijobiy baholanadi. To‘g‘ri olib borilayotgan siyosat va islohotlar natijasida kelgusida bandlik darajasi yanada oshishi kutilmoqda. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bandlik tizimi eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanish ko‘lamini ifodalaydi. mazkur maqolada ,,Sohalar kesimida va Toshkent shahar tumanlar kesimida mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar’’ ko‘rsatgichlari ishlab chiqildi va buning natijasida gender statistikasiga oid ko‘rsatgichlarni shakillantirish uchun zarur axborot manbalari yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] . Doklad o migratsii v iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf

[2]. Statisticheskiy yejegodnik regionov Uzbekistana 2013. Statisticheskiy sbornik. –T.: 2013. – 200 s.

[3]. Sotsialnoe razvitie i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane 2013. statisticheskiy sbornik. –T.: 2013. – 195 s.

[4]. Trud i zanyatost v Respublike Uzbekistan 2013. statisticheskiy sbornik. –T.: 2013. – 137 s.

[5]. Uzbekistan v sifrax 2013. statisticheskiy sbornik. – T.: 2013. – 193s.

[6]. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami. 2013: statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – T.: 2014. – 396 b.

[7]. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – T.: 2015. – 392 b.

[8]. International migration report 2017. UN. N.Y.2017. P4.

Internet resurslari

1. https://selfmadetrip.com/kak-perechat-v-avstraliyu-so-svoim-proektom/

2. https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6548-demografiya

3. O‘zbekiston Resblikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. www.stat.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statitika Qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6555-mehnat-bozori

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
— Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —